

TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

X.Y.Mirzakarimov.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar rini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarbligi, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, uning bugungi kundagi asosiy vazifalari va maqsadi haqidagi fikrlar bildirilgan

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik tarbiyasi, tarbiya jarayoni, konsepsiya, vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi va vazifalari, kibergijtimoiylashuv.

РАЗВИТИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА У СТУДЕНТОВ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье рассматривается актуальность воспитания студентов в патриотическом духе, его значение в воспитании молодежи, его основные задачи и предназначение.

Ключевые слова: Патриотическое воспитание, образовательный процесс, понятие, цели и задачи патриотического воспитания, киберсоциализация.

DEVELOPMENT OF PATRIOTIC DIGNITY IN STUDENTS AS A CURRENT PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. This article examines the relevance of educating students in a patriotic spirit, its importance in educating young people, its main tasks and purpose.

Key words: Patriotic education, educational process, concept, goals and objectives of patriotic education, cybersocialization.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovasion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, intellektual salohiyatli yuksak yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz."³⁵

Aynan zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalari muayyan darajada xizmat qiladi.

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 29.06.2018 y
<https://president.uz/oz/1876>

Bugungi zamonaviy innovatsiya davrida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi. Zero, ayni barcha hozirgi avlodni an'anaviy pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois maktabgacha ta'limdan to malaka oshirishgacha bo'lgan barcha o'quv-tarbiya tizimini yangilash va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek "Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son Qaroriga asosan "2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Konsepsiyaning maqsadi quyidagi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. Konsepsiyaning asosiy maqsadlari.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning bugungi kundagi asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari, ma'naviy sifatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning yagona tizimini yaratish;
- yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ongu-shuuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;
- buyuk tariximiz, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon sivilizatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish;
- Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi

xislatlarni, shuningdek, yurt, oila, ota-ona va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga singdirish;

- yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

- hududlarda turkum harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda kino, teatr, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, harbiy sport bayramlari va musobaqalari (universiada), turli estafetalar, spartakiadalar, sayohatlar uyushtirish, ilmiy-nazariy anjumanlar, keksa avlod vakillari, urush va mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, muayyan sanalarga bag'ishlangan mavzulashtirilgan kechalar tashkillash va o'tkazish, vatanparvarlik mavzusidagi musiqiy festivallar o'tkazish, "Jasorat maktabi" nomli harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlarini o'tkazish orqali yoshlar ongida milliy armiyamizga bo'lgan ishonch va hurmatni yanada oshirish, harbiy xizmatni o'tash, O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

- oliy ta'lim muassasalarida talabalar bo'sh vaqtini unumli o'tkazish va ma'naviyat kunlarini vatanparvarlik masalasiga urg'u bergan holda amalga oshirish, o'quv-moddiy bazani mustahkamlash, harbiy-texnikalar, qurol-yarog'lar ko'rgazmasini muntazam tashkillab borishga etibor qaratish, hamda shu orqali talaba yoshlarda harbiy xizmat, uni o'tashning huquqiy asoslari, jismoniy va jangovar tayyorgarligiga oid ko'nikmalarni shakllantirish va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ommasiga keng yetkazish;

- yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo'lish xususiyatlarini shakllantirish;

- Vatanni himoya qilish, uni asrash to'g'risidagi zamonaviy tushunchalarni, dunyoqarashni, mazkur masala bo'yicha shaxsiy e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlab borish, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-ruhiy tayyorgarliklarini oshirishga yordam beruvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish.³⁶

Globallashuv jarayonida odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi hukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning etiboridagi masalalardan biri hisoblanadi. Bu haqda mamlakatimiz rahbari, Qurolli kuchlariimiz Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoev 2024-yil 12 yanvar kuni o'tkazilgan "Havfsizlik kengashi"ning kengaytirilgan yig'ilishida, har yilgi an'anaga sodiq qolgan xolda alohida

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son Qaroriga asosan "2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi"

to'htalib, "Bugungi kunda har birimiz amalida Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur" deya ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida media makonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni kuchaytirish borasidagi bir qator vazifa va topshiriqlarni qo'ydi.

Sharqona tarbiyaning muhim qadriyatlari sekin astalik bilan o'z o'rnini ommaviy madaniyat elementlariga bo'shatib berayotgan bugungi davrda, oilada, jamiyatda erkak kishining o'rne va ahamiyati oshirish, yigitlarda haqiqiy erkaklarga xos tushunchalar: or-nomus, g'urur, lafz, uyat, jo'mardlik, shijoat kabi hususiyatlarni saqlab qolish, bugungi milliy tarbiya jaryonining muhim vazifalaridan biridir. Mana shunday davrda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining roli va zarurati ortib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kun yoshlari ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. Shundan kelib chiqib vatanparvarlik tarbiyasi shakl va uslublarini ta'sirchanligi hamda didaktik imkoniyatlarini oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kundagi texnik imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish zarur.

Shu o'rinda, tadqiqotchi A.S. Golovan quyidagi fikrlarni ilgari suradi. "Tezkor ahborot almashish davrida jamiyatda yangi ijtimoiy voqelik, kiberijtimoilashuv jarayoni vujudga keldi, bugungi yoshlarning asosiy qismi juda ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. Bu xodisa bizda talaba-yoshlar vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirishda yana bir innovatsion g'oyani shakllanishiga sabab bo'ladi."³⁷ Ushbu ijtimoiy tendensiya zamonaviy pedagogika oldiga kiberijtimoilashuv jarayonida internet tarmoqlari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali, yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishda maqsadli yo'naltirilgan tarbiya shakllarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Buning uchun yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasini ushbu yo'nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish maqsadida yangi internet platformalarini yaratish va mavjudlarini esa pedagogik ta'sirchanligini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining nazariy va amaliy asoslarini yanada mustahkamlab borish talab qilinadi.

Zero, yurtimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ilm va kasb-xunarlarini egallashlari, har tomonlama barkamol, zamonaviy talablarga mos mutaxassislar va yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega vatanparvarlar bo'lib yetishishini ta'minlash davlat ahamiyatiga ega ustuvor vazifalardan hisoblanib, ularni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari o'z halqi, ayniqsa yoshlarining vatan himoyasiga doimiy shayligini ta'minlash maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi jarayoniga

³⁷ А.С. Голован. Инновации военно-патриотического воспитания студентов в военно-учебном центре. Южный федеральный университет. gsa@sfnedu.ru

avvalgidan ko'ra o'zgacharoq yondoshmoqda.³⁸ Xususan jaxondagi rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqod markazlari va mamlakat mudofaasiga mas'ul bo'lgan boshqa muassasalarda milliy va halqaro darajada havfsizlikni ta'minlash borasida ko'plab ilmiy tadqiqod ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Rossiyada ayni paytda siyosiy propagandaga kuchli etibor qaratilmoqda. Turli OAVlar hamda tadbirlar orqali ommaviy targ'ibotga kuch berish bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasini ilk maktab yoshidan boshlashga qaror qilingan. Bunday tayyorgarlik tizimi davlat, jamoat va mudofaa tashkilotlari, shu jumladan, Rossiya DOSAAF tomonidan o'tkaziladigan majburiy va ixtiyoriy tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Shuningdek, 2016 yildan buyon Rossiya Federasiyasida "Yunarmiya" (Yosh armiya) Butunrossiya bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik ijtimoiy harakati faoliyat ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash kerakki, vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlar mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar ta'lim muassasalarida majburiy predmet sifatida o'qitib kelinmoqda. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va vatanparvarlik tarbiyasi, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukrainadagi umumta'lim maktablari dasturiga kiritilgan. 2024 yildan boshlab Latviya maktablarida ham harbiy instruktorlar ishtirokida fuqarolik mudofaasi mashg'ulotlarini majburiy o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Va tabiiyki, AQShda ham yoshlarning harbiy tayyorgarligi masalasi muhim siyosiy vazifalardan biri hisoblanadi. AQShda harbiylashtirilgan tayyorgarlik mashg'ulotlari Amerika skautlar harakati dasturiga kiritilgan bo'lib, u 5 millionga yaqin yoshlarni qamrab oladi. AQSh Qurolli kuchlari bu skautlarni tayyorlash uchun o'z infratuzilmalarini tekinga taqdim etadi.

Shu sabablarga ko'ra hozirda innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan, bunday tarbiyani zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish talab etiladi. Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish ushbu yo'nalishdagi mavjud tajribalar, erishilgan ijobiy natijalarni hisobga olgan holda muntazam rivojlantirib, faollashtirib borish masalasi davr talabi ekanligi borasida D.Mamajonovning ilmiy ishlarida atroflicha to'xtalib o'tgan.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish, talabalar bilan olib boriladigan vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining nazariy va amaliy asoslarini yanada mustahkamlab borish talab qilinadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy pedagogik jarayonni takomillashtirishda A.V. Baraban, V.I. Vdovyuk, N.F. Fedenko, N.I. Kiryashov, V.N. Gerasimovlarning faoliyatlarida o'rganilgan.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish umumiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunga ko'ra, talabalarda


³⁸ X.Y.Mirzakarimov. Globallashuv jarayonida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va ChBQT fanini o'quvchi-yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni. Rezervdagi va zahiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuv. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2021. B-73

vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish har bir fuqaroning va o'sib kelayotgan yosh avlodning eng kichik yoshlik davrlaridan boshlab o'zlashtirib boradigan barcha ta'lim-tarbiyasi, bilimi, e'tiqodi, dunyoqarashining ajralmas qismi bo'lgan vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi.

Eng avvalo yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonidagi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni va ta'lim metodlarini aniqlab olishimiz kerak.

An'anaviy o'qitishda talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor bilimlarni o'zlashtirar edilar. Noan'anaviy o'qitish jarayonida esa ular amaliy faoliyat orqali ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Noan'anaviy o'qitishda talaba nafaqat topshiriqlarni mustaqil bajarish mahoratini egallaydi, balki yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradi, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnologik jarayonlarni ijodiy o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, talabaning mustaqil ishi – vatanparvarlik tarbiyasining shakllantirishda muammoli vaziyat yechimini topishga o'rgatish usullariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

V.I. Vorotilovning fikriga ko'ra, o'qituvchining kasbiy tayyorgarlikni belgilaydigan kompetensiyasi pedagogik mahoratga asoslanadi³⁹ (2-rasm).



2-rasm. Vatanparvarlik jarayoniga tayyorgarlikning ikki turi

Talabalarning vatanparvarlik jarayonida kasbiy tayyorgarligi, ko'nikma va kasbiy hususiyatga ega shaxsiy sifat va fazilatlardan iborat bo'lishi kerak. Pedagogik kompetensiyalar bilan birga bilimlar, ko'nikmalar, shuningdek, ularni faoliyatda, kommunikativ jarayonda (muloqotda), shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishda amalga oshirish usullari va vositalari to'plamini o'z ichiga oladi.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishda ta'lim muassaslarida o'qitilayotgan (Ijtimoiy-gumanitar) fanlarning o'rni juda katta.

³⁹ В.И.Воротиллов. Определения качество образования в новой парадигме управления. Человек и образование. Академический вестник института образования взрослых. №6. Российской академии образования. 2006

Hozirgi kunda O'zbekistondagi ta'lim muassalarining maqsadi yangi avlod mutaxassis kadrlarini tayyorlashga qaratilgan. Ular yuqori umumiy va kasbiy madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy istiqbolli hayotga tez moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy ishlab chiqarish talablarini ham o'zida mujassamlashtirgan kasbiy kamolotda ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, jismoniy va aqliy sog'lom kichik mutaxassislar tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: "Fan va texnologiyalar" 2010 yil.
2. A.Minovarov. Pedagogika. T.: "O'qituvchi" 1996 yil.
3. Sh.Tilavoldiyev, A.Akbarov. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. Farg'ona. 2003 yil
4. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. T.: "Fan va texnologiyalar" 2010 yil.
5. Sh.Tilavoldiyev, A.Akbarov. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. Farg'ona 2003 yil.
6. З.Г.Нуриддинов. Педагогические идеи Абу Райхана Беруни. - Ташкент: Фан, 1989 год.
7. М.Г.Тайчинов. Воспитание и самовоспитание школьников -М.: Просвещение. 1982 год.
8. N.Ortiqov. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. –Toshkent, 1997 yil.
9. G.K.Masharipova. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy me'rosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Tashkent: Navro'z, 2019 yil.
10. O.Musurmonova. Talabalarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 1993 yil.
11. N.E.Muhammadiev. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. - Toshkent, 2005 yil.